




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba‘zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

XALQ ALLALARIDA QO'LLANGAN BA'ZI DIALEKTIZMLAR XUSUSIDA

ON SOME DIALECTISMS USED IN FOLK TALES

Shahnoza MAHMUDOVA,

Navoiy davlat universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Rahmonov Navro'z Sattorovich,

NavDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/QNRB8942

Annotation. *The study of the linguistic property and artistic possibilities of revealing the spiritual, educational, national cultural significance of folk songs – alla (lullaby) the importance of dialectisms is discussed how various dialectal layers contribute to the authentic representation of the national linguistic worldview.*

Key words: *alla(lullaby), national linguistic worldview, folk dialects, dialectal tone, lexical, phonetic, syntactic, semantic dialecticisms, alliteration, gemination.*

Har bir oilada bolaning dunyoqarashi uning milliy-madaniy, ma'naviy ehtiyojiga tayangan hissiy idroki bilan to'yingan holda shakllanadi. Bola ongining va nutqining shakllanishi, rivojlanishidagi ilk bosqich u bilan ona o'rtasidagi hissiy-nutqiy muloqotdan boshlanadi. Shu bois bolaga alla aytishda onaning o'z mehridan tashqari qator muhim omillar ham bor. Shulardan biri – allaning bola tili, nutqiy belgilarining paydo bo'lishi, o'sishida ahamiyati juda katta. Chunki alla bolani tinchlantirish, uxlatish uchun aytiladi. Bu jarayonda chaqaloqda diqqatning ilk uchqunlari namoyon bo'ladi. Ayni shu holat ong atalmish cheksizlikning insonda dastlabki chegaralarini belgilay boshlaydi. Hali bu olamni anglamagan go'dak onaning ohangi, so'zi, uning nazari orqali olam bilan tanishishga kirishadi. Uyqu oldi biologik tinchlanish jarayonida bolada ong osti dunyosi uyg'onadi, miya faoliyatini harakatga keltiruvchi neyronlar shakllanadi. Shu bois ona aytayotgan allaning nafaqat ohangi yoqimli bo'lishi, balki uning so'zidagi ma'no kuchi bu paytda juda muhimdir. Chunki beshikdagi chaqaloq va ona o'rtasidagi bu muloqotni onaning qalbi va tafakkuri, ong osti dunyosi boshqaradi. Har bir xalqda juda qadim zamonlardan folklorning betakror namunasi, oilaviy qadriyatlarning ifodasi, chaqaloqni shunchaki ovutish emas, unga dunyoni tanishtirishning ilk kitobi yanglig' mohiyat kasb etgan allalarni onalarning badiiy tafakkuri durdonasi deb aytish o'rinli. Qolaversa, allalarda tilimizning milliy manzarasi, so'z zaxirasining boyligi, shuningdek, hatto sheva unsurlari saqlanib kelmoqda. Bundan tashqari, sun'iy ong hukmronligi tobora global tus olayotgan bugungi zamonda bola tarbiyasi, uning milliy dunyoqarashi shakllanishida alla aytayotgan telefonlar beshiklarni egallab olayotgan bir paytda, xalq allalarini, ulardagi milliy ohangni asrab qolish, yanada rivojlantirish shart va zarur.

“T.D. Gachiyevning fikricha, olamning milliy obrazi quyidagilarni o'z ichiga oladi: milliy makon, turmush, til; milliy xarakter, milliy qalb; tafakkurning milliy xususiyati, olamni idrok qilish usuli, turmushga nazar, qadriyatlar ketma-ketligi. Har bir davr esa o'z obrazlarini keltirib chiqaradi” [3,128-b]. Xalq og'zaki ijodiga mansub allalarda ana shu omillarning barchasini uchratish mumkin. Qadimda bugungi kabi kommunikatsiya vositalari, axborot texnologiyalari bo'lmaganligi bois insonlarda jonli nutqqa ehtiyoj hozirga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lgan. Shu bois onalar beshikdagi bolani faqat alla aytib uxlatgan, ovutgan. Shu jarayonda ular bola ruhiyatiga mos o'ziga xos o'xshatishlarni tabiatdagi unsurlarga mengzab ta'riflagan. Xalq allalarida inson ruhiyatining tabiat bilan o'ziga xos muloqoti mana shunday o'xshatishlarda ham tabiiy ifodasini qoldirgan. Masalan:

Bulbul sayrar yozinan, alla,

Uxu galmas ovozinan, alla. [1,49-b]

Keltirilgan alla parchasidagi **yozinan** (yozi bilan), **uxu** (uyqu), **galmas** (kelmas), **ovozinan** (ovozidan) kabi morfologik, fonetik dialektizmlardan anglashiladiki, mazkur alla o'g'uz lahjasiga mansub Xorazm shevalariga xos. Kuy-qo'shiqqa qalbi oshufta xorazmliklar uchun bolaning uxlashiga to'sqinlik qiladigan atrofdagi shovqinni bulbul ovozigga o'xshatishi bu o'ziga xos badiiy tafakkur va ona xarakteriga xos estetik ifoda mahsulidir. Uning hududiy mabsubligini esa dialektizmlar izohlab turibdi. Masalan:

*Bulbul qushing bag'ri **dosh**, alla,
Ko'zimdan **oqirma** yosh, alla. [1,56-b]*

Ushbu misolda fonetik hodisa tovush almashinuvi asosida **tosh** so'zi **dosh** shaklida, **oqizma** fe'li **oqirma** tarzida qo'llanilgani ushbu alla matnining aynan Xorazm vohasiga xosligini, bu o'rinda bolaning bulbulga o'xshatilishi esa uning o'g'il bola ekanligini bildirgan. Shuningdek, bu kabi o'xshatishlar Xorazm elining kuy-qo'shiqqa oshuftaligi, san'atsevarligi, madaniy-etnik xususiyatining muhim qirrasini aks ettirgan. Mazkur alla qo'shiqlari bugun ham xorazmlik onalar, momolar tomonidan kuylab kelinmoqda. Xorazm viloyati Urganch tumani Muqimiy ko'chasi 29-uyda yashovchi, kasbi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lgan Dilorom Shamuratova rahmatli onalari Munavvara Yaqubovadan eshitgan quyidagi alla matnini taqdim etdi:

*Dikir-dikir **ayaqingga**
Yo'lda tikan girmasin.
Go'zzi kotti bandalani
Go'zzi shunga deymasin.*

Mazkur alla qo'shig'ida fonetik hodisa asosida jarangsiz undoshlarning jarangli undoshga almashinishi (**kirmasin-girmasin**, **ko'zi-go'zi**, **deymasin-tegmasin**), jarangsiz tovushning jarangsiz tovush bilan almashinuvi (**qotti-kotti**) hamda tovush tushishi (-lar shakli -la shaklida) hisobiga dialektal ohang paydo bo'lgan. Bu alla ma'nosidan anglashiladiki endi yurishni boshlagan kichkina qizaloqning yomon ko'zlardan asrashini ona o'z istagida ifoda etyapti. Aynan **ko'z tegmasin** iborasi bu o'rinda **ko'zi kotti** – **qotti**, ya'ni **qattiq** so'zinig dialektal variantidan hosil bo'lgan sinonimik ma'no orqali ochib berilgan.

***Kizim, kizim, kiz kishi,**
Kizima galar ming kishi.
Ming kishini ichinda.
Olib getar bir kishi.*

Ushbu misolda asosan fonetik dialektal xususiyatlarning bir necha ko'rinishi va alliteratsiya hodisasining birga qo'llanilishi (**Kizim, kizim, kiz kishi**) dialektal ohangdorlikni oshirgan. Natijada o'quvchi ona va qiz obrazidagi betakror bog'lanishni his etadi. Ikkinchi qatordagi **Kizima galar ming kishi** gapidagi **ming kishi** – bu **ming sovchi** mazmunida bo'lib, undagi pragmatik ma'no xalqning etnik qarashlariga bevosita bog'liq orzu-niyatini ifodalagan. **Ming sovchi keladi** jumlasini olamning o'zbek manzarasida, avvalo, onaning qizining tarbiyasi, odobi, oilaparvar bo'lib ulg'ayishini niyat qilganligini ifoda etadi. Bu o'rinda **ming kishi** birikmasi **ming sovchi** ma'nosida qo'llanib, dialektal ma'no hosil qilgan. Xorazmcha allalarda undoshlarning geminatsiya hodisasi, ya'ni bir xil tovushning ketma-ket kelishi ma'noni kuchaytirish, ohangda jo'shqinlik va xushchaqchqlik kayfiyatini namoyon qilish; kelishik qo'shimchalarining dialektal shaklini qo'llash orqali esa (**-ga qo'shimchasi o'rnida -na shakli**) personaj nutqining o'ziga xosligini ta'minlashda o'rinli xizmat qilgan.

*Alla aytam **uzina**
Uxi galar guzzina
Bokib duymam yuzina
Gurar guzzimov alla.*

“Har bir dialektning o‘ziga xos fonetik qonuniyatlari mavjud... Talaffuzdagi ana shunday farqlarning asar tiliga kiritilishi personajni individuallashtirish turli sharoitlarni badiiy va ishonchli tasvirlash” [4, 28-bet] ga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida hududiy mansublikdagi tasavvur xilma-xilligi, ulardagi ma’no chegarasi va undagi ijtimoiy, etnik, psixologik, lingvokulturalogik aspektlarlarga reallashadi.

Oziq bersang – *qaytali*

Avliyoga *jup chiroq aytali*. [1,44-6er],

Mazkur alla qo‘shig‘idan keltirilgan parchada ham fonetik, morfologik dialektal unsurlar (*qaytali -qaytaylik, jum - juft, aytali - aytaylik*) uning o‘g‘uz lahjasiga mansubligini tasdiqlaydi.

Ko‘plab xalq allalarida qo‘llangan leksik dialektizmlar sirasida belanchak (*alvonj, alvonji, alvonjiy, almoch, alonji*), shamol (*bodi, botlansin*), turli xil gullarning nomi, daraxtlar (shaftoli, g‘aynoli, olcha, o‘rik, uzum) qushlar bilan bog‘liq o‘xshatishlarda inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, birlik mujassam.

Suvlar ayting bodiga,

Suv keltirsin kodiga.

Kodi bovi uzulsin.

Bolajonim kelin (yoki kuyov) bo‘lib suzilsin.

Alla qo‘zim allayo, quralay ko‘zim alla.

Men senga borim berdim.

Eslab qol so‘zim, alla.

Yuqoridagi alla qo‘shig‘i matni Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani Batosh qishlog‘ida yashab o‘tgan Oydinoy Farmonovadan yozib olingan. Maqolani yozish jarayonida alla qo‘shig‘idan ushbu parchasi onaxonning qizi Dilfuza Berdiyevadan yozib olindi. Qo‘shiqdagi *bodi-kodi, qo‘zim-ko‘zim* juftligidagi paronimizatsiya hodisasi tashqi nutqda ohangdorlikdagi uyg‘unlikni ta’minlagan. *Suvlar ayting bodiga* deganda **bodi** – **shamolga** murojaat qilishda shamolning bulutlarni haydab kelishi, yomg‘ir yog‘ib kadilar, ya’ni qovoq poliz ekini o‘sishi, pishib-yetilib **bovi** – bog‘idan uzilib tushishi, yetilishiga qiz yoki o‘g‘ilning bo‘yi yetib, kelin-kuyov bo‘lishini qiyoslagan holda etnik dunyoqarashga tutashgan fikrdan oziqlangan yaxshi niyat ifodasi berilgan.

Folklor qo‘shiqlarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan allalarda fe‘l so‘z turkumiga oid dialektizmlar qadimgi turkiy tilga xos so‘z yasaliishi qo‘shma fe‘lning –la va -lan so‘z yasovchi va –n nisbat qo‘shimchasi asosida hosil bo‘lganligi ham o‘ziga xos jihat hisoblanadi.

Masalan:

Alvonjlaring botlansin, (tebransin)

Havasing qanotlansin, (Qanot bog‘lasin)

Ikki xumor ko‘zingga

Uyqu kelsin – qotlansin (qotib uxlasin) [1,60-6]

Ta’kidlash lozimki, *botlansin, qanotlansin, qotlansin* kabi fe‘l so‘z turkumiga oid yasalmalar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asarida (masalan: *uchlandi-uchli bo‘ldi, uchlandi – uchta bo‘ldi, yoki uzumlandi – ishqom uzunli bo‘ldi* singari [2, 109-122-b.]) uchraydi. Bunda simmetrik takrorlar (bir tovush, qo‘shimcha, so‘z yoki so‘z birikmasining bir xil tarzda va bir o‘rinda takrorlanib kelish hodisasi) *bot, qanot, qot* mustaqil leksemalarida –o va t tovushlari hamda –lansin shaklli takrorlar orqali intonatsiyada ohang butunligi ta’minlangan. Qo‘shma fellarning bu tarzda qo‘llanishi ko‘proq oddiy xalq so‘zlashuv uslubiga xos tejamlilik sifatida dialektal poetik qimmatga ega. “Poetik so‘z o‘zi bilan xalqning ijtimoiy tajribasiga bog‘liq bo‘lgan ruhiy va emotsional assotsiatsiyalarni faollashtiradi” [3,128-b.]. Xalq og‘zaki ijodining qadim zamon va makonga mansubligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, hech bir tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik maktabida ta’lim olmagan onalar, momolarning hayot maktabining a’lochilari bo‘lganliklarini, so‘z va ma’noni, undagi shakl va mohiyatni teran ilg‘aganliklarini hamda ijtimoiy tajribadan shakllangan hissiy idrokning olam va tabiatga nechog‘lik hamohangligini anglash qiyin emas.

O'zbek xalq allalarida ijtimoiy muammolar, oiladagi moddiy-ma'naviy hayot tarzi, o'z ahvolidan norozilik va shikoyat mazmuni ham anglashilgan. Bunda ko'proq leksik dialektizmlarning faol ishtiroki matndagi tasvir realligi va uning zamon hamda makon chegarasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, quyidagi misolda bolaning paxtali choponi yo'qligini ona shunchaki qo'shiqqa solgani yo'q, oilaning moddiy tomondan ahvolidan shikoyat ohangi, yo'qchilik, qiyinchilikdan og'ir ahvoldagi shaxs ruhiy holati ham unda o'z ifodasini topgan:

*Qish kelar **guppisi** yo'q, alla, (guppi paxtali chopon, to'n)*
Bolasining do'ppisi yo'q, alla.
Otasining davlati yo'q, alla,
Onasining rohati yo'q, alla. [1, 38-bet]

Allalarda qo'llangan dialektal xususiyatlar aytuvchining shaxsiga qarab undagi his-tuyg'uning tabiiy jozibasini ifodalashda o'ziga xos ahamiyatga egaligini ko'rish mumkin. Bunda hosil bo'lgan dialektal shakllarda leksik, semantik, morfologik, sintaktik belgilar bir-birini to'ldirib, bir-biriga tirgak bo'lib kelgan. Masalan:

Aylaniblar ketayin,
Katan ko'ylak etayin,
Katan ko'ylagi kir bo'lsa,
*Yuvi **oppoq etayin**. [1, 75-bet]*

Ushbu misolda **katan ko'ylak** zig'ir tolasidan tayyorlangan matodan tikilgan ko'ylak bo'lib, bolaning terisi nozikligi, shuningdek, mavsum yoz fasli bo'lganligi uchun yupqa, havo o'tkazuvchi va yumshoq ayni paytda qimmatbaho mato haqida ham aynan dialektal leksema orqali tushunchaga ega bo'lish mumkin. Leksik- semantik jihatdan **ketayin** so'zi qo'shma fe'lning tarkibidagi tobe so'z sifatida ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Yana bir kesimlik shakli **etayin** ikki o'rinda ikki xil ma'no o'ttenkasini hosil qilganligi uchun kontekst ichida ma'nodoshlik yuzaga kelgan. Birinchi o'rinda mustaqil so'z sifatida **etayin** – *olib bormoq* ma'nosida, keyingi o'rinda esa **oppoq etmoq** – *oqartirmoq* mazmunini kuchaytirishdan tashqari she'rda ohangdoshlikni yuzaga keltirish uchun ham xizmat qilgan.

Alla – ona va bola o'rtasida o'ziga xos suhbat. Allalar aynan kvazidialogning yaqqol namunasi. Ma'lumki, "Dialogning bir turi sifatida farqlanayotgan kvazidialog faqat shartli ma'noda dialog sanalgan, lotin etimologiyasiga ko'ra **kvozi** – o'xshash, kabi; dialog kabi, dialogga o'xshash muloqot turidir. Bunday muloqotda so'zlovchi vazifasini ham, tinglovchi vazifasini ham bir kishi bajaradi. Ko'p hollarda bunday muloqot turini bolalar nutqida kuzatish mumkin" [5, 93-b.]. Ammo allalarda bu asosan aytuvchining, ko'proq onalar nutqida namoyon bo'ladi. Dialektizmlar esa nutq egasining real til xususiyati, so'zning egasining tipik xarakter portretini aynan saqlanib qolinishiga asos bo'lgan.

*Alla aytсам **yotarming**, (uxlaysanmi, uxlarmiding)*
***Gul yostig'a botarming** (yostiqlarning yumshoqligi, bolaning oromi)*
***Gul yostig'ing go'tarsam**, (guldek yostig'ingni ko'tarsam)*
Uxlab-uxlab yotarming (uxlaysanmi, uxlarmiding). [1, 83-bet]

Ushbu misolda onaning bola bilan suhbatida so'zlovchi onaning o'zi bo'lganligi uchun kvazidialog yuzaga kelgan. Bir qarashda ritorik so'roq mazmuniga yaqin. Ammo bu orinda ona va bola ortasidagi jonli muloqot, o'ziga xos lirik suhbat kechmoqda, so'zlovchi va tinglovchi bor. Ammo tinglovchi tilidan ham onaning o'zi gapiradi, boisi beshikdagi bola hali chqaloq. Aynan kvazidialog shaklidagi allalar bolaning nutqi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Kichik yoshli, ayniqsa, ikki-uch yoshligida o'z-o'zi bilan gaplashishi, masalan. mehmon-mehmon yoki boshqa

o'yinlarda o'zi ham mehmon, ham mezbun bo'lib suhbatdoshsiz suhbatda bo'lishi ularning chaqaloqligida onasi bilan kechgan kvazidialoglar shaklidagi muloqot tufayli shakllanganligini inkor etib bo'lmaydi.

Allo-allo, odingnan, (otingdan, ismingdan)
Alvonjiyning bodinan, (belanchakning shamoli)
Onajoning o'rgulsun,
Kokilingni torinan. (toridan) [1,21-b.]
Er (erta) tursam saharlar turibdi-ey,
Ichim g'amlardan to'libdi-ey.
Bu o'limning dardinan-ey,
Bag'rim vayronalar bo'libdi-ey,
Jonim bolam, alla. [1,131-b.]

Xalq allalarida qarindoshlik rishtalarining azaliy amaliy ahamiyatiga oid munosabatlar ham yaqqol ifodalangan. Bu milliy-madaniy konnotativ xususiyatga ega etnosning muhim belgisi sifatida namoyon etilgan. Shu orqali bolaga juda erta yoshdan qarindoshlar bilan munosabatlar haqida go'yo onalarimiz, momalarimiz hatto alla aytuvchi otalar va bobolari ilk tanishuv axborotini lirik tarzda yetkazgan.

Do'konda otmon sadag'a, alla, (nima bor bo'lsa, hammasi degani)
Ammasi botmon sadag'a, alla,
Do'konda halvo sadag'a, alla, (holva)
Xolasi Zuhro sadag'a, alla. [1,116-b.]

Sheva qatlamlarida ko'p uchraydigan leksik va fonetik sathda alohida o'ringa ega dialektizmlar bu, shubhasiz, qarindoshlikni ifodalovchi atamalardir. Xalq shevalarida yashayotgan ko'plab bunday so'zlar asl turkiy til xazinasidagi durdonalari hisoblanadi. Ularning yashayotganligi milliy-ma'naviy xususiyatlarning davomiyligi bilan ham asosli. Ta'kidlash o'rinli, "Qavm-qarindoshlik atamalarining asosiy qismini umumturkiy qatlamga mansub so'zlar tashkil qiladi. Ular asrlar davomida har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, o'tmishi bilan bog'liq milliy qadriyatlar sifatida avloddan avlodga o'tib saqlanib kelmoqda" [6,125-b.]. Masalan, Xorazm shevasida bugun ham *tog'a* so'zi *doyi* tarzida ishlatiladi.

Mirshod o'g'lim yoshinda, alla,
Yosh kokili boshinda, alla.
Har kim shuni so'rasa, alla,
Doyilari qoshinda, alla-yo alla (52-bet).

Allalar nafaqat onalar, momalar, balki bobolar, otalar tomonidan ham aytilgan. Bu o'zbek milliy mentalitetida oilaviy qadriyatlar, muqaddas rishtalar, bola tarbiyasiga bo'lgan munosabat, kengfe'llik hamda mehridaryolik kabi jihatlarni mezonlaydi. Xalq tiliga xos shakliy o'ziga xoslik va ko'ngil manzarasi dialektal ohang orqali yanada rost va asliylik kasb etgan. Masalan, quyidagi misolda bobo tilidan aytilgan alladan parchada fikrimizning asosini ko'rish mumkin.

Bovang kelib bog' soldi,
Bulbulga yayloq soldi.
Bovang solan yaylog'i,
Boshingga panoh bo'ldi. [1,43-bet]

Erkaklar tomonidan aytilgan allalar ba'zi hududlarda "heyalar" deb atalgan. Bu allalar ko'proq chorvadorlar, masalan, cho'ponlar orasida keng tarqalgan. Ot bilan bog'liq xalqning qarashlarida azaldan epchillik, chaqqonlik, mardlik, sadoqatni ifodalovchi ma'nolar mujassam

bo'lgan. Beshikdagi bolaga esa tabiiyki eng yaxshi tilaklar shunchaki til uchida aytilgan so'zlar emas, balki mohiyatan tugal fikr va istakning so'zdagi surati san'atkorona tasvirlangan.

Jonim bolam, ot chopsin,

Otiga baxmal yopsin.

Heya solsin buvasi.

Orqasidan jol topsin. (jol tovmog – foyda topmog ma'nosida)

Heya, bolam, hey.

Alla qo'shiqlarida onalarning qalb nafasi so'zdagi ma'no ohangida sezilib turadi. Xalq allalarida borliqdan, hayotdan ilhomlanib uni idrok etgan onalar, momolar, hatto ota-bobolarning eng qadimgi, ayni paytda har bir davrda o'z qimmatiga ega ma'naviy-estetik dunyoqarashi, turmush tarzi va hayot surati o'z tajallisini topgan. Allalarda e'tiqod tarbiyasining unsurlari bor. Aslida tilning yashovchanligi so'zlardagi ma'no ifodasi, umuminsoniy ezgu hislarga bog'langan va shaklan ham, mohiyatan ham o'z vazifasini har bir zamon va makonda bajara olishiga ko'ra uzayishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ona tilimizning so'z boyligi bu faqat so'zlarning soni emas, ularning xalq tilida yasaliş imkoniyatlaridagi xilma-xilligi, ijtimoiy hayotda faolligi singari qator xususiyatlariga ko'ra ham belgilanadi. Bu mezonlarni belgilash, tadqiq va tahlil etishda dialektizmlarning alohida o'rni bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек халқ аллалари. Алла-ё алла. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
2. Маҳмуд Қошғарий Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Гафур Ғулум нашриёти, 2017.
3. Маматов А. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.
4. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
5. Davlatova R., Musayeva N. Tilshunoslikda dialog va kvazidialog masalasi. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021-yil, 3-son.
6. Madaminova R. Qoraqalpog'iston hududidagi turkiy xalqlarning etnolingvistik xususiyatlari. 2023-yil, 1-son.